



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2021 - yil 16 - iyul

VI-36-10-7-93-K/21

Bulung'ur tuman hokimligi

Tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i B.Jo'raqulovning 2021-yil 2-chorak davomida tumanda huquqbuzarliklarni oldini olish va ularning profilaktikasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 7-yanvardagi 01-22-14/20-sonli xati ijrosini ta'minlash maqsadida tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i Jo'raqulovning tumanda 2021-yil 2-chorak davomida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilik oshgan mahallalarda profilaktika ishlarni amalga oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisobotini tinglab, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining XXXVI-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i B.Jo'raqulovning 2021-yil 2-chorak davomida "Tumanda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilik oshgan mahallalarda profilaktika ishlarni amalga oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman sektor rahbarlariga:

profilaktika inspektorlari bilan ularning muammoli masalalari bo'yicha takliflarni qabul qilish uchun shaxsan har oyda bir marotaba uchrashuvlar o'tkazilishi tashkillashtirish;

huquq tartibot idoralari rahbarlari va o'rinbosarlarini "qizil" va "sariq" toifadagi mahallalarga shaxsan mas'ul etib biriktirish va ularning har kuni 1 soat

davomida jinoyatchilikning ahvolini tahlil qilib borish ishlarini nazoratga olish;

mahalla ahlining har bir muammolari kesimida profilaktik choralarning yondashuvli metodikalarini yaratish va amaliyotga tadbiq etish;

hududlarlar darajasida ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i va prokuror o‘rinbosarlari ushbu vazifalar ijrosi bilan tizimli shug‘ullanishi lozimligi tavsiya etilsin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, har bir sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan o‘tkaziladigan yig‘ilishlar va muhokamalarda sektor rahbarlari shaxsan ishtirok etsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (B.Jo‘raqulov), tegishli bo‘lim va tashkilotlar bilan hamkorlikda:

profilaktika inspektorlariga ularning bevosita xizmat majburiyatlariga ta’lluqli bo‘lmagan topshiriqlarning berilishini taqiqlash;

janjalkash va notinch oilalarni ro‘yxat asosida tahlil qilib, ular bilan manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, notinchlikni keltirib chiqarayotgan asl sabablarni aniqlab, mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda ushbu oilalarda sog‘lom muhitni yaratish choralari ko‘rish;

oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish borasida takror-takror aytilishiga qaramasdan, bu turdagi og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etilayotganligini, jinoyatlar sodir etilishi ko‘paygan mahallalarni inobatga olgan holda, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi bilan hamkorlikda oilaviy zo‘ravonliklarning oldini olish, tajovuzkor yoki salbiy xulq-atvoriga ega shaxslar bilan psixologlar ishini tashkil etish choralari ko‘rsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga hududlarda jamoat tartibini saqlash va hududda karantin tadbirlari talablariga to‘liq rioya etilishi ustidan ta’sirchan deputatlik nazoratini o‘rnatish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.Radjabov) zimmasiga yuklatilsin.

Кенгаш раиси



Б.Бахрамов